



Odil Yoqubov “Yaxshilik” asarining ma’naviy-axloqiy tomonlarini o‘rganish usullari

Zokirjonova Muazzam

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti

o'zbek adabiyotshunosligi 2-kurs magistanti

Annotatsiya: Mazkur ishda umumta’lim maktablarida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, ta’lim jarayoniga ta’siri va samaradorligi yoritilgan. Bugungi kunda an’anaviy dars uslublaridan interfaol metodlarga o’tish o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Interfaol yondashuvlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlab, ularning mantiqiy tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, ushbu ishda interfaol metodlarning o‘qituvchilar faoliyatidagi o‘rni, ularni joriy etishdagi muammolar hamda samaradorlikni oshirish yo‘llari bayon etilgan. Ish umumta’lim maktablarida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, o‘quvchilar faolligi, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This study explores the importance of using interactive methods in general education schools, their impact on the learning process, and their effectiveness. Transitioning from traditional teaching methods to interactive approaches plays a crucial role in enhancing students' engagement, fostering independent thinking, and developing



teamwork skills. Interactive approaches ensure students actively participate in the learning process, helping them improve logical thinking, creative abilities, and problem-solving skills. Additionally, this study highlights the role of interactive methods in teachers' activities, the challenges of their implementation, and strategies to enhance their effectiveness. The research concludes with recommendations aimed at improving the quality of education in general education schools.

Key words: interactive methods, educational effectiveness, student engagement, innovative approach, pedagogical technologies.

Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasi — bu insoniyatning yuqori axloqiy qadriyatlarini o'rgatishga qaratilgan asar. Hikoyani, odatda, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va shafqatsizlik, kechirimlilik va qahrni o'rgatishga yo'naltirilgan deb tahlil qilishadi. Yana insoniy munosabatlar va tuyg'ular orasidagi murakkablik va tushunmoychiliklar ham g'oyat qaltis vaziyat – II jahon urushi davri rakursida gavdalantirilgan. Ammo bu kabi mulohazalar va fikrlarni aslo 6-sinf o'quvchisiga o'qituvchi tomonidan tayyor yetkazilmasligi kerak, chunki bugungi o'quvchi badiiy asar haqidagi mustaqil talqinlarini bemalol, o'z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko'ra bayon qila olish imkoniyatiga ega", -deb hisoblashadi darslik mualliflari. Ammo ko'p holatlarda o'qituvchining magistral (qonuniy) huquqi o'quvchining erkin fikrlariga daxl qilib, uni *"buni to'g'ri deb qabul qil"*¹ kabi mezonlarga ergashishga majbur qiladi. Oqibatda asar mohiyati o'quvchilarning fikri, idroki va anglovidan chiqarilgan xulosalar emas, balki o'qituvchining yoki adabiyot darsligi

¹E.Chambers, M.Gregory. Teaching and Learning English literature. Sage Publications.London, 2006, P.11. Bu tamoyil jahon adabiy ta'limidagi an'anaviy "o.qituvchi faol" (teacher centered-approach)ga yaqin tushuncha bo.lib, adabiy tahlilda yakka fikrlilikka asoslanadi.



mualliflarining shaxsiy qarashlaridan paydo bo'lgan yagona xulosani tashkil etadi"², deyiladi 6-sinf adabiyot darsi uchun mo'ljallangan o'qituvchi kitobida.

Shu nuqtai nazardan, adabiyot fanining umumta'lim fanlari ichida o'zining mustahkam o'rni, maxsus shakllantiradigan kompetensiyalariga ega asosiy fan ekanligini ko'rsatuvchi hamda muhim vazifalaridan bo'lgan – bolada mustaqil fikrlash, tahlil va talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishiga yordam beruvchi omillar keltirib o'tilgan: Bular, davlat tomonidan ta'lim uchun alohida belgilangan standartlar, ikkinchisi, shu standartlarga muvofiq baholash tizimlari va eng asosiy bo'lgan so'nggi omil – metodika va o'quv materiallari kabilar ta'lim samaradorligini oshirishi izohlangan.

O'quv materiallari va ularning zamiridagi metodika o'quvchilarni fanga qiziqтира olishi, o'quvchilar fan oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishida yordam bermog'i lozim. Maktab o'quvchisi uchun eng asosiy o'quv material bo'lgan darslik shunchaki fanga oid ma'lumotlar yig'indisi emas, balki o'quvchi bilan interfaol dialogga kirishib, unda kompetensiyalarni shakllantirishga yordam bera oladigan vositaga aylanishi talab qilinadi³.

6-sinf Adabiyot darsligida o'qib tahlil qilish uchun berilgan "Yaxshilik" hikoyasi va uning mutolaasi davomida darslikda berilgan topshiriqlar nazarda tutilgan yuqoridagi vazifaga mos keladi. Asar falsafiy tahlil qilish, xulosa chiqarish va o'quvchilar orasida ko'pfikrlilik, bahs-munoaza muhiti yaratadigan mavzuda tanlangan. Hikoya bahstalabligi bilan bir qatorda, mavzu jihatidan uning muallifi hayot yo'lini qisman ifodalaydi hamda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish imkoni ham mavjud. Bunda asar voqealari II jahon urushi davrida ro'y berishi juda qo'l keladi.

² Mirzayeva Z. Djalilov K. Adabiyot 6. 6-sinf uchun metodik qo'llanma. – Toshkent.: Respublika ta'lim markazi, 2022, 3-bet.

³ Mirzayeva Z. Djalilov K. Adabiyot 6. 6-sinf uchun metodik qo'llanma. – Toshkent.: Respublika ta'lim markazi, 2022, 3-bet.



Badiiy asar matni bilan ishlashning har bir bosqichida albatta, o‘quvchini biror faoliyat turiga qo‘zg‘atuvchi savol va topshiriqlar berilishi shart ularni shartli ravishda mutolaadan avvalgi, mutolaa davomidagi va mutolaadan keyingi topshiriqlar kabi qismlarga bo‘linadi. Darslik matnida har bir bosqichda Bolani mustaqil fikrlab javob berishga undaydigan savol berib ketilgan, jumladan, mutolaga kirishishdan oldin quyidagicha savol berish:



- O‘ylab ko‘ring-chi, urush paytida yaqinlari frontga ketgan insonlar uchun eng katta yaxshilik nima bo‘lishi mumkin?
- Eng katta yomonlik-chi?

To‘g‘ri, bugungi kun bolasi uchun urush tushunchasi birmuncha uzoqlashdi, unday davrlarini ko‘rgan-bilgan kishilar ularning yaqinlari orasida topilishi mushkul ekanligini hisobga olib media va boshqa manbalardan olgan, eshitgan ma‘lumotlari va biror yaqini tahlikali vaziyatda yohud uzoqda bo‘lganda, ayriliq yoki judolik onlarida ko‘nglidan kechadigan shaxsiy tuyg‘ularidan kelib chiqib javob berishlari mumkin.

“Fikrlar bo‘roni”(Brainstorming) metodi buning uchun qo‘l keladi.

Brainstorming — bu yangi fikrlar va yechimlarni yaratishga qaratilgan ijodiy va samarali usuldir. Bu metod ko‘pincha guruh ishlari yoki shaxsiy fikrlarni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Brainstorming metodini ishlatishda asosan quyidagi qoidalar va usullarni ko‘rib chiqish kerak.

Oddiy brainstormingda fikrlarni erkin tarzda o‘ylab, guruh a‘zolari bir-biriga aralashmasdan, bir-birini tanqid qilmasdan fikrlarini bo‘lishadilar. Har bir fikr muhokama qilinadi va keyin yangi fikrlar uchun imkoniyatlar yaratish uchun ishlatiladi.

Qoidalar:



Fikrlarni hech qanday cheklovlarsiz aytish kerak.

Boshqa odamlarning fikrlarini tanqid qilmaslik kerak.

Fikrlarni to'plab, keyin ularni tahlil qilish

So'nggida o'ziga xos va g'ayrioddiy fikrlar qabul qilinadi.

Tanqidiy brainstormingda guruh a'zolari fikrlarni taklif qilishadi, lekin har bir fikrni baholash va tahlil qilish darhol amalga oshiriladi. Bu usul yangi yechimlarni tezda topishga yordam beradi.

- **Qoidalar:**

Har bir fikrni baholash va tahlil qilish jarayonida ijobiy va salbiy tomonlarni muhokama qilish.

Fikrlarni to'plash va keyin ularni birlashtirish.

Tanqidiy fikrlarni yangi g'oyalar bilan birlashtirish.

Kechiktirilgan brainstorming: Fikrlarni taklif qilish va ularni muhokama qilishni bir vaqtga kechiktirish. Bu metodda, avval, barcha fikrlar yig'iladi, keyin ular baholanadi. Bu ijodiy fikrlarni rivojlantirishga yordam beradi.

- **Qoidalar:**

Fikrlar to'planganidan so'ng, ularni baholash va tanqid qilish.

Dastlabki bosqichda hech qanday baholash yoki tanqid qilmaslik.

O'zaro fikr almashish va rivojlantirishga imkon yaratish.



- Muallif qanday og'ir voqea haqida hikoya qilib beradi deb o'ylaysiz?
- Mansurning kelinoyisi sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakteri haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Mansur pochtachi kelishini aytib noto'g'ri ish qildimi? Siz uning o'rnida nima qilgan bo'lardingiz?

Yuqoridagi savollarni mutolaa davomida berib, javob olish, mutolaa so'nggida esa yana shu savollarga qaytish mumkin. Balki javoblar va fikrlarda o'zgarishlar bo'lar. Fikrlarda sodir bo'lgan o'zgarishlar sabablarini tahlil qilish mumkin.

Bu savollarga javob berish asosida turli metodlardan foydalanish mumkin. Hikoyaning asosiy ma'nosi yaxshilikning ham inson ruhiy holatiga qarab turlicha qabul qilinishi haqida hayotiy holatlarga misol keltirish. Yaxshilik va yomonlikni yaqqol chegara bilan ajratib bo'lmazligi haqida savol tashlash bilan ham o'qituvchi o'z o'quvchilarini asar va hayotiy tajriba orasida bog'lashga erishishi mumkin.

Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, juftlashib yoki yakka tarzda hikoyadagi yaxshilik va yomonlikni, ularning qanday ifodalanganini tahlil qilishadi. Keyin, guruhlar o'z fikrlarini ochiq muhokama qilib, hikoyaning asosiy ma'naviy xabarini aniqlashadi. Bunda e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihat, hali to'liq ulg'ayib ulgurmagan 6-sinf o'quvchisining o'z qarorlari va o'zgalar fikriga ham hurmat fazilatini shakllantirish uchun tartibni saqlab turishga erishish.


Rolli o'yin metodi.

Metod mazmuni: Hikoyadagi xarakterlarning muammolarini va ularga qanday javob qaytarilganini tushunish. Asosiy personajlarning harakatlarini talqin qilish o'quvchilarga hikoyadagi har bir personajning ichki kurashlarini va qarorlarini his qilishga yordam beradi. O'quvchilar "Yaxshilik" hikoyasidan bir nechta sahnalarni tanlab, ular orasida rollarni



taqsimlaydilar yoki mutolaa jarayonida ularga rollar bo'lib beriladi. Ular o'zining qahramoniga o'xshash tarzda harakat qiladi, shu bilan birga, ma'naviy jihatlar va ular tomonidan amalga oshirilgan yaxshilik yoki yomonlikni muhokama qiladi. Misol uchun, kelinoyining ketish sahnasi yoki uning bolaning yuziga qaramasligi kabi holatlarda talaba uning xatti-harakatlarini o'zlari his qilishga harakat qilishadi. Bu metod talabalar uchun empatiya (boshqalar hislarini tushunish) va axloqiy qarorlar (ma'juziy ma'noda yaxshilik qilish "qonun-qoidalarini"ni)qabul qilish jarayonini o'rganishga yordam beradi (Mansur pochta kelishini aytib noto'g'ri ish qildimi?Siz uning o'rnida nima qilgan bo'lardingiz?)

Bu savolga debat shaklida ham javob izlash mumkin: Hikoyadagi asosiy voqealarga nisbatan turli nuqtai nazardan baho berish, yaxshilik va yomonlikka oid fikrlarni o'zaro solishtirish. O'quvchilarga hikoyaning ma'naviy jihatlarini turli nuqtai nazardan muhokama qilish imkonini berish:



Yozma-ijodiy ish: Albatta, bolalik erkaliklaridan hali to'liq halos bo'lmagan 6-sinf o'quvchisida asardagi kabi vaziyatga o'xshash holatlar bo'lgan va o'zining shaxsiy "Yaxshilik" hikoyasi bo'lishi mumkin. Uni ijodiy ish orqali ifodalash topshirig'ini berish kerak. Bu usul nafaqat hikoyaning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki shaxsiy hissiyotlar orqali ma'naviy qadriyatlarni qabul qilishni osonlashtiradi.



Vizual metodlar: Insoniy portretlar va kartalar. Hikoyadagi xarakterlarning ichki dunyosini tasvirlash va ularning ma'naviy o'sishini ko'rsatish. Talabalar hikoyadagi personajlarning asosiy xislatlarini va ular orasidagi yaxshilik va yomonlikni vizual tarzda tasvirlashadi. Bu tasvirlar hikoyaning ma'naviy tomonlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, yaxshilik va yomonlikni aks ettiruvchi qarama-qarshi obrazlarni yaratish.

Kutilmagan Yakun (Improvisation) metodining mazmuni yaxshilikning kuchini kutilmagan holatlar orqali tushunishda ko'rinadi. Talabalarga hikoyaning oxiriga kutilmagan o'zgarish kiritishni so'rash mumkin. Masalan,

✚ **Hikoyachi bola kelinoyisini pochtachi kelgani haqida suyunchilab ogohlantirmaganda o'sha mash'um xabarni ular eshitmagan bo'larmidi?**

✚ **Bunda kelinoyining unga nisbatan munosabati baribir avvalgidek bo'larmidi? (Bu usul orqali talabalar axloqiy qarorlar va ularning oqibatlarini ko'rib chiqishlari mumkin)**

✚ **"Siz yaxshilikni qayerda va qanday ko'rasiz? Bugungi kunda yaxshilikni qanday qilib namoyon qilish mumkin?"**

Bu savollar talabalarni qiziqtiradi, ular fikrlarini o'zaro bo'lishishadi va har bir ishtirokchi hikoyaning ma'naviy tomonini yangi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi.

Odil Yoqubovning "Yaxshilik" hikoyasining ma'naviy tomonlarini interfaol metodlar orqali o'rgatish, talabalar uchun nafaqat adabiy bilimni, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ham o'zlashtirish imkonini beradi. Interfaol metodlar talabalarning fikrini erkin ifodalashlariga, empatiya va ma'naviy qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi, bu esa hikoyaning ma'nosini yanada chuqurroq anglashga imkon yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Egamberdiyeva F. Adabiy ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi. Ped. fanl. nom. diss. avtoreferati. ?.: 2005.
2. Hayitov A, Boymurodov N. Ta'limda noan'anaviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. ?.: "Yangi asr avlodi", 2006,
3. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – T.: O'zinkomsentr, 2003.9-b
4. Ibragimova G. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.dok. ...diss. – T.: 2017. 18-b
5. Ibragimova N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped.fan. fals.dok. diss... - Toshkent. 2018. 77-b.
6. Jobborova Gulnoza Kadamovna. PEDAGOGIK ODOB-AXLOQ VA TALABA XULQ – MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(1/2), Jan., 2023. 97-105